



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

UDK: 37.018.4:614.8

TA'LIM MUASSASALARIDA XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

*Alimov Shavkat Azimovich, Isoqov Abdurashid Qutbiddinovich
Xoldarov Azizjon Rasulovich*

Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi
gmail: egamberdiyevazizbek206@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari muhokama qilingan. Unda hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning usullari va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, xavfsizlik, hayot faoliyati xavfsizligi, xavfsizlik madaniyati, favqulodda holatlar, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, maktab xavfsizligi.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ БЕЗОПАСНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье рассмотрены научно-педагогические основы формирования культуры безопасности в образовательных учреждениях. Проанализированы понятие безопасности жизнедеятельности, её роль в образовательном процессе, методы и методические подходы к формированию культуры безопасности у учащихся. Также представлены рекомендации по созданию безопасной среды в образовательных учреждениях, использованию современных педагогических технологий и обеспечению готовности к чрезвычайным ситуациям.

Ключевые слова: Система образования, безопасность, безопасность жизнедеятельности, культура безопасности, чрезвычайные ситуации, компетентностный подход, современные технологии, безопасность в школе.

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING A SAFETY CULTURE IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. This article discusses the scientific and pedagogical foundations for developing a safety culture in educational institutions. It analyzes the concept of life safety, its role in the educational process, as well as methods and methodological approaches to developing a safety culture among students. The

article also provides recommendations for creating a safe environment in educational institutions, using modern pedagogical technologies, and ensuring preparedness for emergency situations.

Keywords: Education system, safety, life safety, safety culture, emergency situations, competency-based approach, modern technologies, school safety.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi faqatgina yosh avlodga bilim berish emas, balki ularni katta hayotga tayyorlash, turli ko'rinishdagi xavf-xatarlardan ogohlantirish, kelgusi faoliyatda xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) fanining ta'lim tizimidagi o'rni aynan shu vazifani bajarishga xizmat qiladi. Mazkur fan orqali o'quvchilarda xavfsizlik madaniyati shakllantiriladi, favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi, ularning ekologik, texnogen, tabiiy va ijtimoiy xavflarga nisbatan ongli yondashuvi mustahkamlanadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda mahalliy olimlardan Sh. Tairov o'zining "Ta'lim tizimida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik asoslari" nomli ilmiy maqolasida hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi roli va o'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, metodik yondashuvlar - shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faol ta'lim metodlari tavsiflangan [2]. N. D. Samadova o'zining "Ta'lim muassasalarida yong'in xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy maqolasida ta'lim muassasalarida yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari, evakuatsiya, tashkiliy va texnik jihatlar muhokama qilinadi [3]. Xorijiy olimlardan L.A. Mixaylov hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi yangi ilmiy-pedagogik yo'nalishning asoschisi, fundamental tadqiqotlar va ko'plab nashrlar muallifi, bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy rahbari hisoblanadi. Uning ilmiy ishlanmalari pedagogik jihatdan xavfsizlikni o'qitish va kompetensiyalarni shakllantirish uchun konseptual poydevor bo'lib xizmat qiladi [4].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) inson salomatligi, hayoti va mehnat faoliyatini xavf-xatarlardan asrashga qaratilgan kompleks bilim sohasi hisoblanadi. Bu fan orqali o'quvchilarga xavf tushunchasi, xavf-xatarning turlari, ularning oqibatlari, xavfsiz muhitni yaratish va favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish o'rgatiladi. HFX fani quyidagi yo'nalishlarda ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadi [2, 5, 6, 7]:

1. O'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish.
2. Tabiiy va texnogen xavflarning oldini olish.
3. Ijtimoiy xavfsizlik va sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
4. Ekologik madaniyatni rivojlantirish.

Pedagogik yondashuvlar va metodik asoslar

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'quvchilarga samarali o'rgatish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi [8, 9, 10]:

a) kompetensiyaviy yondashuv - o'quvchida faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Masalan: birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, yong'in yoki zilzila vaqtida evakuatsiya qilish bo'yicha bilim beriladi.

b) faol ta'lim metodlari - treninglar, rolli o'yinlar, interaktiv darslar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga, vaziyat tahliliga o'rgatiladi.

c) integratsion yondashuv - Hayot faoliyati xavfsizligi fanini boshqa fanlar (biologiya, fizika, texnologiya, jismoniy tarbiya) bilan uyg'unlashtirish orqali fanlararo bilimlar mustahkamlanadi.

d) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tashkil etiladi.

Maktabda xavfsiz muhit yaratish pedagog va ma'muriyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Har yili Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda vaziyatga tayyorgarlik rejasi tuzish;

- O'quvchilarning xavfsizlikka oid bilimlarini baholash va monitoring olib borish;
- Evakuatsiya mashg'ulotlarini tashkil etish (yong'in, zilzila, gaz sizishi holatlari va boshqalar);
- Mahalliy Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqarma va bo'limlari, yo'l-patrul xizmati va tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;
- Maktabda videokuzatuv, xavfsizlik texnikasi, darslik va ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash.

O'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish

Xavfsizlik madaniyati - bu insonning ongli ravishda xavf-xatarlardan xabardor bo'lib, o'zini va boshqalarni himoya qilishga bo'lgan tayyorgarligi hisoblanadi. Bu madaniyatni shakllantirishda o'qituvchining roli nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi yo'llar orqali bu madaniyat rivojlantiriladi [2]:

- Tarbiyaviy soatlar orqali xavfsizlikka oid suhbatlar o'tkazish.
- Rasmlar, videoroliklar, plakatlari orqali vizual targ'ibot ishlari olib borish.
- Ko'rgazmalar va tanlovlar tashkil etish.
- Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish.

Zamonaviy ta'limni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda quyidagi raqamli yondashuvlar samarali ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi:

- Virtual simulyatsiyalar (evakuatsiya mashqlari);
- Mobil ilovalar orqali birinchi yordam berish va boshqa xavfsizlik qoidalari;
- Onlayn testlar orqali bilimlarni baholash;
- Video darsliklar va animatsiyalar yordamida tushunchalarni mustahkamlash.

XULOSA

Tadqiqot davomida sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy ishlanmalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va internet saytlari bilan tanishib, quyidagi xulosaga keldim: Ta'lim tizimida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash – bu nafaqat o'quvchilarni

himoya qilish, balki ularning hayotga tayyorgarligini oshirish, mustaqil va ongli fuqaro sifatida shakllanishiga zamin yaratish demakdir. Bu borada o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, fanlararo integratsiya, amaliy yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni keng targ'ib etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, har bir ta'lim muassasasi xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatining targ'ibotchisiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" gi 455-sonli Qarori. 1998-yil 27-oktabr
2. Sh. Tairov. Ta'lim tizimida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik asoslari. New Renaissance international scientific journal. ResearchBib IF - 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 7.
3. N. D. Samadova o'zining "Ta'lim muassasalarida yong'in xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari". ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. 2025-yil 3-son 4-to'plam.
4. Л. А. Михайлов, А. В. Старостенко «Основы безопасности жизнедеятельности. 5-6 классы.» Пособие для учителя; изд. Российский государственный педагогический университет им. А. И. Герцена (РГПУ), Союз 2001 год.
5. Л. А. Михайлов, В. П. Соломин, А. Л. Михайлов «Безопасность жизнедеятельности : Учеб. для вузов» — изд. Питер 2005 год.
6. В. П. Соломин, О. Н. Русак, С. В. Абрамова, Е. Н. Бояров «Пожарная безопасность. Учебник» — изд. Academia 2014 год
7. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
8. Karimov A. "Xavfsizlik madaniyati va zamonaviy maktab". –T: "Ilm-Fan", 2021.
9. UNESCO. "Global Framework for School Safety Education". – Paris, 2020.
10. Tursunov R., Ibrohimova N. "Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari". –T: "Ilm-fan ziyosi" nashriyoti, 2023. – 241 b.